“Innovatsion tadqiqotlar, kimyo sanoatida ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish muammolari va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman

// 25.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsion-tadqiqotlar-kimyo-sanoatida-ilg-or-texnologiyala

Bugun “O‘zkimyosanoat” AJ hamda Innovatsion rivojlanish agentligi bilan hamkorlikda “Innovatsion tadqiqotlar, kimyo sanoatida ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish muammolari va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 10-oktabrdagi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan ushbu anjumanda Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Saudiya Arabistoni va mamlakatimizdan kimyo va gaz-kimyo sanoatining ilm-fan, ishlab chiqarish, texnologiyalar ishlab chiquvchilari, shuningdek, yetakchi xorijiy investorlar ishtirok etdi.

Konferensiyadan ko‘zlangan maqsad - ilm-fan va biznesning o‘zaro hamkorligi uchun maydon yaratish, samarali tashabbuslarni amalga oshirishda ilmiy g‘oyalar va tajriba almashish, aloqalarni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro manfaatli hamkorlikning istiqbollarini muhokama qilishdan iborat.

Ishtirokchilar akrilamid ishlab chiqarishning biotexnologik usuli va mahsulot turini yanada kengaytirish, O‘zbekistonda yashil vodorod olishning innovatsion texnologiyasini joriy etish, plazma yordamida metandan sof vodorod va qattiq uglerod olishning ekologik xavfsiz texnologiyasini yaratish, reaktiv oligomerlar va polimerlar sohasidagi tadqiqotlar, fosfogipsni kompleks qayta ishlash (ishlab chiqarish chiqindilari) kabi sohalardagi innovatsiyalar bo‘yicha o‘zaro fikr almashdilar.

Tadbir yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston uchun eng dolzarb loyihalar portfelini shakllantirish uchun innovatsion ishlanmalar ro‘yxati shakllantirildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati